

KOMPETENSIYA VA KASBIY KOMPETENTLIKNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Jiyanov Farrux Bohodirovich*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri**Ilmiy rahbar: Davronova Shaxlo Farmonovna**Pedagogika f. f. d. (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “kompetensiya” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mazmuni, kelib chiqishi, rivojlanish tarixi va ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati keng yoritilgan. Kompetensiya shaxsning muayyan bilim, ko’nikma va malakalarni egallaganligi bo’lsa, kompetentlik ularni amaliyotda samarali qo’llay olish qobiliyatidir. Maqolada tilshunos Noam Chomsky, psixologlar L.S. Vygotskiy, D. McClelland va sotsiologlar P. Bourdieu, T. Parsons, A. Giddens kabi mutaxassislarining kompetensiyaga oid nazariy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan 8 asosiy kompetensiya ham bayon etilib, ularning O’zbekiston ta’lim tizimiga tatbiqi imkoniyatlari ko’rib chiqiladi. Kompetensiyaviy yondashuvning psixologik, sotsiologik va pedagogik asoslari, shuningdek, kompetensiyani baholash usullari, kasbiy tayyorgarlikdagi roli va amaliy kompetentlikning namoyon bo’lish shakllari ham maqolada chuqur tahlil qilinadi. Muallif ushbu yondashuvni zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida e’tirof etib, uning O’zbekistonda rivojlanish tarixiga ham to’xtaladi.

Kalit so’zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bilim va ko’nikma, amaliy faoliyat, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, ta’lim tizimi, kompetensiyaviy yondashuv, O’zbekiston ta’limi, baholash mezonlari.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the concepts of "competence" and "professional competency," their definitions, historical development, and significance in the modern education system. Competence refers to an individual's acquisition of specific knowledge, skills, and abilities, while competency is the ability to effectively apply them in practice. The article examines theoretical perspectives from prominent scholars such as linguist Noam Chomsky, psychologists L.S. Vygotsky and D. McClelland, and sociologists like P. Bourdieu, T. Parsons, and A. Giddens. It also outlines the eight key competences recommended by the European Union and discusses their potential adaptation within Uzbekistan’s educational framework. The psychological, sociological, and pedagogical foundations of competence-based approaches are analyzed, along with assessment methods, their role in professional preparation, and how practical competency manifests. The author emphasizes the importance of this approach as an integral part of contemporary education and reviews the historical evolution of these concepts in Uzbekistan since the 1990s.

Keywords: competence, competency, professional competency, knowledge and skills, practical application, pedagogy, psychology, sociology, education system, competence-based approach, Uzbekistan education, assessment criteria.

Kompetensiya va kasbiy kompetentlik tushunchalari zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. "Kompetensiya" (lotincha "competere" so'zidan olingan bo'lib, "loyiq", "mos kelmoq" ma'nosini anglatadi) shaxsning muayyan sohada bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligini bildiradi. "Kompetentlik" esa ushbu bilim va ko'nikmalarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlik — bu mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishidir.

"Kompetensiya" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalari XX asr o'rtalarida pedagogika, psixologiya va menejment fanlarida shakllana boshlagan. Quyida ularning tarixiy rivojlanishiga qisqacha nazar tashlaymiz:

Kompetensiya tushunchasi. "Kompetensiya" tushunchasi dastlab tilshunoslik va ta'lim nazariyasi sohalarida paydo bo'lgan. Bu atamani birinchi bo'lib Noam Xomskiy (Amerikalik tilshunos) 1965-yilda o'zining "Aspects of the Theory of Syntax" (Sintaksis nazariyasining jihatlari) asarida qo'llagan. U tilshunoslikda kompetensiyani insonning nutq qobiliyatiga, ya'ni grammatika qoidalarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyatiga bog'lagan.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi. "Kasbiy kompetentlik" tushunchasi dastlab ta'lim va menejment sohasida qo'llanilgan. Bu tushunchani ta'lim tizimiga 1970-yillarda AQShlik pedagog va psixologlar, jumladan R. Uayt (R. White) va D. MakKlelland (D. McClelland) kiritgan. David McClelland o'zining "Testing for Competence Rather Than Intelligence" (1973) maqolasida insonning bilim darajasi emas, balki real ish faoliyatidagi qobiliyatlari va ko'nikmalarini aniqlash muhimligini asoslab bergan. R. Uayt esa kompetentlikni insonning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati sifatida ta'riflagan.

"Kompetensiya" tushunchasi turli fanlarda – psixologiya, sotsiologiya va pedagogikada – o'ziga xos tarzda izohlanadi. **Psixologiya va sotsiologiya sohasida** kompetensiya insonning muayyan sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi va ularni kundalik hayotda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha insonning ijtimoiy muhitga moslashishi, ijtimoiy qadriyat va normalarni qabul qilishi va ularga mos ravishda harakat qilishi bilan bog'liq. Kompetensiya shaxsning ijtimoiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi¹³. **Psixologiya va sotsiologiya** sohasida ko'plab olimlar kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini o'rganib, ularni turli nuqtai nazardan ta'riflab bergan. N. Chomsky kompetensiyani tilshunoslik doirasida tushuntirib, insonning til qoidalarini bilish qobiliyati sifatida izohlagan¹⁴. L.S. Vygotskiy kompetensiyani insonning psixologik rivojlanish jarayonida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llay olish qobiliyati sifatida ko'rsatadi¹⁵. J. Raven kompetensiyani shaxsning muayyan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati sifatida ta'riflaydi¹⁶. D. McClelland

¹³ N. Xolyigitova, D. Abdumajidova. "Kasbiy psixologiyasi". Toshkent "Iqitsod-M Oliya". 2019. B-544.

¹⁴ Noam Chomsky. "ASPECTS OF THE THEORY OF SYNTAX" THE M.I.T. PRESS Massachusetts Institute of Technology Cambridge, Massachusetts. 1965. P.-48.

¹⁵ Виготский Л.С. "Мышление и речь". М. 2023. С.-448.

¹⁶ J. Raven. "Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release". – London, H. K. Lewis & Co. Ltd., 1984. - 251 p.

kompetensiyani insonning muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlari va ko'nikmalar majmuasi sifatida tushuntiradi¹⁷.

Sotsiologiyada kompetensiya va kompetentlikni o'rganish bilan shug'ullangan olimlar. P. Bourdieu kompetensiyani ijtimoiy maydonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy kapital va madaniy bilimlar tizimi sifatida ko'rsatadi. T. Parsons kompetensiyani shaxsning jamiytdagi rollarini muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati sifatida tushuntiradi. A. Giddens kompetensiyani ijtimoiy strukturalar bilan bog'liq holda, shaxsning o'zaro munosabatlar jarayonidagi faolligi sifatida izohlaydi. E. Durkheim kompetensiyani shaxsning ijtimoiy institutlar bilan bog'liq holda o'zini tutish qobiliyati sifatida tushuntiradi¹⁸.

Psixologiyada kompetensiya ko'proq shaxsning individual qobiliyatlari va ruhiy jarayonlari bilan bog'liq holda tushuntirilsa, sotsiologiyada esa u ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonidagi qobiliyat sifatida izohlanadi.

Pedagogika sohasida kompetensiya tushunchasi ta'lim jarayonida o'qituvchi yoki o'quvchining bilim va ko'nikmalarni egallash darajasi hamda ularni amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatini bildiradi. Kompetensiya shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini natijaga yo'naltirilgan holda amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyati sifatida qaraladi. Bu tushuncha o'qituvchining o'quv jarayonidagi samaradorlik darajasini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir¹⁹.

Umuman olganda, kompetensiya insonning o'zi egallagan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Har bir sohada kompetensiya tushunchasi turli jihatlari bilan ajralib turadi va shaxsning kasbiy va ijtimoiy faolligiga ta'sir qiladi.

Kompetensiya atamasining ta'lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lish mumkin (1-rasm).


2006-yilda Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan uzluksiz ta'lim jarayonida rivojlantirilishi lozim bo'lgan **8 ta asosiy kompetensiya** tavsiya etilgan. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ona tilida muloqot qilish qobiliyati
- Chet tilida muloqot qilish ko'nikmasi
- Matematik kompetensiyalar hamda tabiiy fanlar va texnika sohasidagi asosiy bilimlar
- Raqamli savodxonlik
- Mustaqil ravishda o'qishni o'rganish ko'nikmasi
- Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari
- Tadbirkorlik va tashabbuskorlik qobiliyati
- Madaniyatni tushunish va uni ifodalay olish ko'nikmasi

¹⁷ D. McClelland. "Testing for Competence Rather than for Intelligence". // New Jersey, January 4, 1971.P-14.

¹⁸ Pierre Bourdieu. "Outline of a Theory of Practice". Cambridge ; New York : Cambridge University Press.1977.P.258. Talcott Parsons. "The Social System". Glencoe, Ill. : Free Press.1951.P.448. Anthony Giddens. "The Constitution of Society". University of California Press Berkeley and Los Angeles.1984.p/402. Émile Durkheim. "Education and Sociology". New York, NY : Free Press.1956.P.163.

¹⁹ N.Ilxomovich. S. Barakayevich. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari". // Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022.



1-rasm. Kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari.

Yevropa mamlakatlarining tajribasiga asoslanib, O'zbekiston ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. Kompetensiyalarni tanlab, ularni ta'lim tizimiga moslashtirish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy bilimlarni qo'llash va turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Kompetentlik tushunchasi ko'pincha "**bilim darajasi**" bilan bog'lanadi. Bu esa biror ob'yektning mohiyatini chuqur tushunish va tafakkur qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Shu bilan birga, kompetentlik insonning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir.

Kompetensiya tushunchasiga turli xil ta'rif va yondashuvlar mavjud. Xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da kompetensiya tushunchasi quyidagicha izohlanadi: **kompetensiya** (lotincha "*competo*" – erishmoq, munosib bo'lmoq, loyiq bo'lmoq) – muayyan davlat organi (yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjatlar bilan belgilangan vakolatlari, huquq va majburiyatlari doirasi; shuningdek, muayyan sohadagi bilim va tajribalar majmui sifatida tushuniladi.

Kompetensiya atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal qilishda bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanish, amaliy tajribaga asoslangan holda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Ushbu tushuncha lotincha "*competere*" – muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

Tashabbuskorlik kompetensiyasi deganda insonning harakatlarni o'zi boshlab, voqea-hodisalarga shaxsiy ijobiy fazilatlari orqali samarali ta'sir ko'rsatish qobiliyati tushuniladi. Tashabbuskorlik doimiy izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni va qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olishni talab qiladi. Odatda, har bir lavozim uchun **5-10 ta asosiy**

kasbiy kompetensiya belgilanadi va ular aniq ko'rsatilib o'tiladi. Bunday hollarda o'qituvchi tomonidan test savollari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu testlar orqali o'quvchilarning ma'lum kompetensiyani qanchalik o'zlashtirganligi aniqlanadi. Test natijalari asosida o'quvchining kompetensiyani o'zlashtirish darajasi baholanadi.

Umuman olganda, **kompetensiya** – bu muayyan masalaning mohiyatini tushunish va uni muvaffaqiyatli hal qilish uchun amaliy tajriba asosida bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyatidir. Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda turli ko'nikmalarni shakllantirishga, ularga kelajakdagi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy faoliyatda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisi bo'lib, u bilim mahsuli sifatida mutaxassis tomonidan amaliyotda qo'llanilishi bilan namoyon bo'ladi. **Kompetensiya** bilan **bilim** orasidagi asosiy farq shundaki, kompetensiyani baholash uchun uni amaliy faoliyat davomida sinab ko'rish talab etiladi. **Malaka** esa kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, u turli holatlarda, jumladan, muammoli vaziyatlarda ko'p marotaba qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

Amaliy kompetentlik – bu bilimning natijasi bo'lib, amaliyot davomida qo'llash qobiliyatini bildiradi. Kompetensiya amaliy faoliyat orqali namoyon bo'ladi va shuning uchun uni faqat amaliy tajriba asosida baholash mumkin.

Kasbiy kompetentlik – bu kasbiy faoliyat bilan bog'liq masalalarni hal qilish jarayonida bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llay olish qobiliyatidir.

"Kompetensiya" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalari O'zbekistonda 1990-yillardan boshlab ta'lim tizimiga kirib kelgan.

"Kompetensiya" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalari O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi tarixi. 1-jadval.

№	1990-yillar - Mustaqillik davri boshi	2000-yillar- Ta'lim tizimini isloh qilish bosqichi	2010-yillar - Kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish bosqichi	2020-yildan boshlab- Kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimi
1	O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ta'lim tizimida xalqaro tajribalar, jumladan, G'arbiy Yevropa, AQSh va Rossiya ta'lim tizimlari	1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv elementlari joriy etila boshlandi.	2017-yilda qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" asosida ta'lim tizimiga	2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qaroriga binoan kompetensiyaviy yondashuv asosida

	o'rganila boshlandi		kompetensiyaviy yondashuvni keng tatbiq etish belgilandi	ta'lim tizimi yanada rivojlantirildi.
2	Bu davrda "kompetensiya" tushunchasi ta'lim jarayoniga cheklangan darajada kiritilgan. Asosan, bilim, ko'nikma va malaka tushunchalari asosiy o'rinda bo'lgan.	Kompetensiya tushunchasi ko'proq kasbiy ta'lim va maktab ta'limi jarayoniga tatbiq etilgan.	2018-yilda tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqildi	O'zbekiston ta'lim tizimida quyidagi asosiy kompetensiyalar belgilab berildi: Kommunikativ kompetensiya Axborot bilan ishlash kompetensiyasi Muammolarni hal qilish kompetensiyasi Texnologik kompetensiya Jamiyatda moslashish kompetensiyasi
3		Kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli asosida bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb eta boshladi.	Kasbiy ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan dasturlar, baholash mezonlari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi.	
4			Shu davrda "kasbiy kompetentlik" tushunchasi keng qo'llanila boshlandi, ayniqsa, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida.	

Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan ta'lim O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.N.Xolyigitova.D.Abdumajidova. "Kasbiy psixologiyasi". Toshkent "Iqitsod-M Oliya" .2019. B-544.
2. N.Ilxomovich. S. Barakayevich. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari". // Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022
- 3.Выготский Л.С. "Мышление и речь". М. 2023.С.-448.
- 4.J. Raven. "Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release". – London, H. K. Lewis & Co. Ltd., 1984. - 251 p.
- 5.D. McClelland. "Testing for Competence Rather than for Intelligence". // New Jersey, January 4, 1971.P-14.
- 6.Pierre Bourdieu . *"Outline of a Theory of Practice"*. Cambridge ; New York : Cambridge University Press.1977.P.258.
- 7.Talcott Parsons . *"The Social System"*. Glencoe, Ill. : Free Press.1951.P.448. Anthony
- 8.Giddens.*"The Constitution of Society"*. University of California Press Berkeley and Los Angeles.1984.p/402. Émile
- 9.Durkheim .*"Education and Sociology"*. New York, NY : Free Press.1956.P.163.
- 10.Noam Chomsky. "ASPECTS OF THE THEORY OF SYNTAX" THE M.L.T. PRESS Massachusetts Institute of Technology Cambridge, Massachusetts. 1965. P.-48.